

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 137 sahifa.
2026-yil, mart

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODELİ	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOBİ: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDAGI AHAMIYATI	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	



KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI

Qurbonov Abror Abdullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: mr.abror.qurboov@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-6653-4366>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada korporativ xizmatlarning bank foydasiga ta'siri chuqur iqtisodiy va moliyaviy tahlil asosida o'rganilgan. Xususan, bank daromadlari tarkibidagi foizli va komission daromadlarning o'zaro nisbatlari, ularning shakllanish mexanizmlari hamda umumiy moliyaviy natijalarga ta'siri tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida bank foydasining shakllanish modeli ishlab chiqilib, korporativ kreditlash, hisob-kitob operatsiyalari, valyuta konversiya xizmatlari va kafolat operatsiyalarining daromadlilik darajasi baholangan. Tadqiqot natijalari tijorat banklarida korporativ xizmatlar strategiyasini takomillashtirish va daromadlar tuzilmasini optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Korporativ xizmatlar, bank foydasi, foizli daromadlar, komission daromadlar, kredit portfeli, daromadlar diversifikatsiyasi, bank rentabelligi, moliyaviy barqarorlik, risk-boshqaruv, daromadlar tuzilmasi, tijorat banklari.

Abstract. This scientific article studies the impact of corporate services on bank profits based on in-depth economic and financial analysis. In particular, the relationship between interest and commission income in the structure of bank income, the mechanisms of their formation, and their impact on overall financial results are analyzed based on a systematic approach. In the course of the research, a model for the formation of bank profits was developed, and the profitability of corporate lending, settlement operations, currency conversion services, and guarantee operations was assessed. The results of the research serve to develop practical recommendations for improving the strategy of corporate services in commercial banks and optimizing the structure of income.

Keywords: Corporate services, bank profit, interest income, commission income, loan portfolio, income diversification, bank profitability, financial stability, risk management, income structure, commercial banks.

Аннотация. В данной научной статье на основе углубленного экономико-финансового анализа исследуется влияние корпоративных услуг на прибыль банка. В частности, на системном подходе анализируется взаимосвязь между процентным и комиссионным доходом в структуре доходов банка, механизмы их формирования и их влияние на общие финансовые результаты. В ходе исследования разработана модель формирования прибыли банка и оценена рентабельность корпоративного кредитования, расчетных операций, услуг по конвертации валюты и гарантийных операций. Результаты исследования служат основой для разработки практических рекомендаций по совершенствованию стратегии корпоративных услуг в коммерческих банках и оптимизации структуры доходов.

Ключевые слова: Корпоративные услуги, прибыль банка, процентный доход, комиссионный доход, кредитный портфель, диверсификация доходов, рентабельность банка, финансовая стабильность, управление рисками, структура доходов, коммерческие банки.

KIRISH

Jahon moliya tizimida bank sektori iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, tijorat banklari faoliyatida korporativ segment alohida strategik ahamiyat kasb etadi, chunki yirik va o'rta biznes subyektlari bilan hamkorlik bank aktivlari hajmini oshirish, uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirish hamda barqaror daromad oqimini ta'minlash imkonini beradi. Zamonaviy bank tizimida daromadlar strukturasi faqat kreditlashdan iborat bo'lib qolmay, balki komission xizmatlar ulushining ortishi

bilan tavsiflanadi. Shu sababli, korporativ xizmatlarning bank foydasiga ta'sirini chuqur o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda.

Global moliya bozorlarida raqobatning kuchayishi, foiz stavkalarining o'zgaruvchanligi hamda makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida banklar daromadlar diversifikatsiyasiga alohida e'tibor qaratmoqda. An'anaviy foizli daromadlar kredit portfeli hajmi va sifati bilan bevosita bog'liq bo'lsa, komission daromadlar ko'proq xizmat ko'rsatish faoliyatiga asoslanadi va risk darajasi nisbatan past bo'ladi. Shu jihatdan, korporativ xizmatlar doirasida hisob-kitob operatsiyalari, valyuta konversiyasi, bank kafolatlari, akkreditivlar, masofaviy bank xizmatlari kabi yo'nalishlarning rivojlanishi bank foydasining barqaror o'sishiga xizmat qiladi [1].

Ilmiy adabiyotlarda bank foydasi ko'pincha foiz marjasi va aktivlar rentabelligi orqali baholanadi. Biroq so'nggi yillarda komission daromadlarning ortib borishi bank daromadlar tuzilmasini tubdan o'zgartirmoqda. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda komission daromadlarning umumiy daromadlardagi ulushi 30–50 foizgacha yetgan. Bu esa banklarning kredit risklariga qaramligini kamaytirish hamda iqtisodiy sikllar ta'sirini yumshatish imkonini bermoqda.

O'zbekiston bank tizimida ham so'nggi yillarda korporativ xizmatlar ko'lami kengayib bormoqda. Banklar tomonidan yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish, eksport-import operatsiyalarini qo'llab-quvvatlash, kafolat va akkreditiv xizmatlarini rivojlantirish orqali foizli va komission daromadlar ulushi oshirilmoqda. Biroq daromadlar strukturasi optimal nisbatini aniqlash va ularning foydaga ta'sirini kompleks baholash yetarlicha ilmiy tahlilni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – korporativ xizmatlarning bank foydasiga ta'sirini, xususan foizli va komission daromadlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asosda tahlil qilish hamda daromadlar strukturasi optimallashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

- korporativ xizmatlar iqtisodiy mohiyatini ochib berish;
- bank daromadlarining strukturaviy tarkibini tahlil qilish;
- foizli va komission daromadlarning bank foydasiga ta'sir darajasini baholash;
- daromadlarni diversifikatsiya qilishning bank barqarorligiga ta'sirini aniqlash;
- strategik boshqaruv bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida tijorat banklarining korporativ segmenti faoliyati tanlangan bo'lib, predmetini esa korporativ xizmatlar orqali shakllanadigan foizli va komission daromadlarning bank foydasiga ta'sir mexanizmlari tashkil etadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy bank tizimida foydaning barqaror o'sishini ta'minlash uchun daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, komission xizmatlar ulushini oshirish hamda kredit risklarini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, iqtisodiy beqarorlik sharoitida banklar uchun risklarni kamaytiruvchi va likvidlikni mustahkamlovchi strategiyalarni ishlab chiqish zarurati mavjud. Shu bois, korporativ xizmatlarning bank foydasiga ta'sirini tizimli tahlil qilish bank menejmenti, moliyaviy strategiya va risk-boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Korporativ xizmatlarning bank foydasiga ta'siri masalasi bank menejmenti, moliyaviy vositachilik nazariyasi va risk-boshqaruv yo'nalishlarida keng o'rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda bank daromadlari tarkibi, foiz marjasi, komission tushumlar va ularning bank rentabelligiga ta'siri turli nazariy va empirik yondashuvlar asosida tahlil qilingan.

Bank daromadlari nazariy asoslari. Bank foydasining shakllanishi masalasi klassik moliyaviy vositachilik nazariyasida asoslab berilgan. Xususan, Diamond, Douglas W. va Rajan, Raghuram G. bank kapitali va riskni boshqarish nazariyasini ishlab chiqib, kreditlash operatsiyalarining daromadlilik va xavf o'rtasidagi muvozanatini ilmiy asosda tushuntirganlar. Ularning fikricha, bank daromadining asosiy qismi foiz marjasi orqali shakllanadi, biroq kapital yetarliligi va aktivlar sifati foydaning barqarorligiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi [2].

Keyingi tadqiqotlarda bank daromadlari strukturasi diversifikatsiya qilinishi zarurligi ta'kidlangan. Saunders, Anthony va Cornett, Marcia Millon tijorat banklari faoliyatini risk-menejment nuqtai nazaridan o'rganib, komission daromadlar ulushining ortishi kredit riskini qoplashda muhim omil ekanini qayd etganlar. Ularning ilmiy xulosalariga ko'ra, foizli daromadlar iqtisodiy sikllarga sezgir bo'lsa, komission tushumlar nisbatan barqaror daromad manbai hisoblanadi.

Daromadlar diversifikatsiyasi va bank rentabelligi. Bank daromadlarini diversifikatsiya qilish masalasi so'nggi o'n yilliklarda keng empirik tadqiqotlar obyektiga aylangan. Xususan, Stiroh, Kevin J. bank daromadlari tarkibida foizsiz (non-interest) daromadlar ulushi ortishi bank rentabelligi va risk ko'rsatkichlariga qanday ta'sir qilishini tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, daromadlar diversifikatsiyasi qisqa muddatda foydani oshirishi mumkin, biroq haddan tashqari diversifikatsiya riskni ham oshirishi ehtimoli mavjud [3].



Yevropa bank tizimi misolida olib borilgan izlanishlarda komission daromadlarning o'sishi aktivlar rentabelligi (ROA) va kapital rentabelligi (ROE) ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Shu bilan birga, kredit portfelining sifati va foiz marjasining darajasi bank foydasining asosiy determinantlari sifatida qayd etilgan.

Korporativ segment va bank foydasi. Korporativ xizmatlar bo'yicha ilmiy ishlarda asosiy e'tibor kreditlash operatsiyalariga qaratilgan. Tadqiqotchilar korporativ kredit portfelining hajmi va sifati bankning foizli daromadlari asosini tashkil etishini ta'kidlaydilar. Biroq so'nggi yillarda hisob-kitob operatsiyalari, valyuta konversiyasi, bank kafolatlari va akkreditiv xizmatlaridan olinadigan komission daromadlarning roli ortib bormoqda. Xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlarida rivojlangan mamlakatlar banklarida komission daromadlar ulushi 35–45 foiz atrofida ekani ko'rsatilgan. Bu ko'rsatkich rivojlanayotgan mamlakatlarda nisbatan past bo'lsa-da, o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ilmiy manbalarda korporativ mijozlar bilan ishlash uzoq muddatli barqaror daromad manbai ekani alohida qayd etilgan.

Foizli va komission daromadlar o'zaro bog'liqligi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, foizli va komission daromadlar o'rtasida ma'lum darajada o'zaro to'ldiruvchanlik mavjud. Kreditlash hajmining ortishi ko'pincha qo'shimcha komission xizmatlarga talabni oshiradi (hisob-kitob operatsiyalari, kafolatlar, valyuta xizmatlari). Shu sababli, korporativ segmentda kredit operatsiyalari va komission xizmatlarni integratsiyalashgan holda rivojlantirish bank foydasining kompleks o'sishini ta'minlaydi [4].

Empirik tadqiqotlarda regressiya modellari yordamida bank foydasi (ROA, ROE) va daromadlar tarkibi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki: Foizli daromadlar qisqa muddatli foyda o'sishiga kuchli ta'sir qiladi. Komission daromadlar esa uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi. Daromadlar tarkibining optimal nisbati bankning risk profiliga bog'liq.

Milliy tadqiqotlar tahlili. Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston bank tizimida kreditlash operatsiyalari ustuvor ekani, biroq komission xizmatlarning ulushi so'nggi yillarda ortib borayotgani qayd etilgan. Ayniqsa, masofaviy bank xizmatlari, korporativ onlayn platformalar va eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish orqali komission tushumlar sezilarli darajada oshgan. Biroq mavjud ilmiy ishlarda aynan korporativ xizmatlarning foizli va komission daromadlar orqali bank foydasiga kompleks ta'siri yetarli darajada empirik asosda o'rganilmagan. Ko'pchilik tadqiqotlar umumiy daromadlar yoki kredit portfeli samaradorligi bilan cheklanadi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, analiz, sintez, kuzatuv, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki: Bank foydasining nazariy asoslari keng yoritilgan. Daromadlar diversifikatsiyasi va risk o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Biroq korporativ xizmatlarning foizli va komission daromadlar integratsiyasi orqali bank foydasiga kompleks ta'siri yetarlicha tizimli tahlil qilinmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot korporativ xizmatlarning bank foydasiga ta'sirini strukturaviy va empirik jihatdan tahlil qilish orqali ilmiy adabiyotdagi mavjud bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan (1-jadval).

1-jadval. Korporativ xizmatlar daromadlarining bank foydasiga ta'sir ko'rsatkichlari tahlili

Ko'rsatkich nomi	Hisoblash formulasi	2022 yil	2023 yil	2024 yil	Foydaga ta'siri
Foizli daromadlar ulushi	Foizli daromadlar / Jami daromad	62%	58%	55%	Ijobiy (yuqori ta'sir)
Komission daromadlar ulushi	Komission daromadlar / Jami daromad	25%	30%	34%	Ijobiy (barqaror)
Sof foyda	Jami daromad – xarajatlar	100%	112%	126%	Natijaviy ko'rsatkich
Aktivlar rentabelligi	Sof foyda / Jami aktivlar	1.8%	2.1%	2.4%	To'g'ridan-to'g'ri
Kapital rentabelligi	Sof foyda / O'z kapitali	14%	16%	19%	Yuqori ijobiy
Muammoli kreditlar ulushi	Muammoli kreditlar / Kredit portfeli	4.5%	4.2%	3.8%	Salbiy ta'sir kamaymoqda
Daromadlar diversifikatsiya indeksi	$\Sigma(\text{daromad ulushi}^2)$	0.46	0.41	0.37	Risk kamaymoqda

Mazkur jadval tijorat banklarining korporativ xizmatlari natijasida shakllangan daromadlar tarkibi va ularning bank foydasiga ta'sirini ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra: Foizli daromadlar ulushi 2022–2024-yillarda pasayish tendensiyasini ko'rsatmoqda, bu daromadlar strukturasi diversifikatsiya jarayoni ketayotganidan dalolat beradi. Komission daromadlar ulushi barqaror o'smoqda, bu esa bankning risk darajasini kamaytirish va foyda barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. ROA va ROE ko'rsatkichlarining oshishi korporativ xizmatlar samaradorligining ortganini bildiradi. NPL ko'rsatkichining kamayishi kredit portfeli sifati yaxshilanayotganini ko'rsatadi. HHI indeksining pasayishi daromadlar konsentratsiyasi kamayib, bank daromatlari manbalari diversifikatsiyalanayotganini anglatadi. Umuman olganda, jadval ma'lumotlari korporativ xizmatlar doirasida komission daromadlar ulushining oshishi bank foydasining barqaror o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari korporativ xizmatlarning bank foydasiga ta'siri ko'p omilli va murakkab iqtisodiy jarayon ekanligini ko'rsatdi. Olingan empirik natijalar foizli va komission daromadlar o'rtasida muayyan muvozanat mavjud bo'lgandagina bank foydasi barqaror o'sishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, daromadlar tarkibining diversifikatsiyasi bankning moliyaviy barqarorligi va risk darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Birinchidan, foizli daromadlar bank foydasining asosiy manbai bo'lib qolmoqda. Kredit portfelinin o'sishi, foiz marjasining maqbul darajada saqlanishi hamda kredit risklarining nazorat qilinishi rentabellik ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Empirik model natijalariga ko'ra, foizli daromadlar ulushi oshganda ROA va ROE ko'rsatkichlari ham ijobiy dinamikaga ega bo'ladi. Biroq foizli daromatlarga haddan tashqari tayanish bankni makroiqtisodiy beqarorlik, inflyatsiya va foiz stavkalari o'zgarishlariga nisbatan sezgir qilib qo'yadi [6].

Ikkinchidan, komission daromadlar bank foydasining barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Hisob-kitob operatsiyalari, bank kafolatlari, valyuta konversiyasi va masofaviy bank xizmatlari orqali shakllanadigan komission tushumlar kredit riskiga bog'liq emasligi bilan ajralib turadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, komission daromadlar ulushi oshishi sof foyda o'sishini qo'llab-quvvatlaydi hamda daromadlar tebranishini kamaytiradi. Bu holat daromadlar diversifikatsiyasi nazariyasini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Uchinchidan, muammoli kreditlar (NPL) darajasi bank foydasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Kredit portfeli sifati yomonlashganda foizli daromadlar qisqaradi va zaxiralar ajratilishi natijasida sof foyda kamayadi. Shu bois korporativ kreditlashda risk-boshqaruv tizimining takomillashtirilishi bank rentabelligini saqlashning muhim sharti hisoblanadi.

Shuningdek, daromadlar konsentratsiyasi indeksi (HHI) pasayishi bank faoliyatida diversifikatsiya jarayoni kuchayganini ko'rsatadi. Bu esa daromad manbalarining kengayishi orqali risklarni taqsimlash imkonini beradi. Empirik natijalar shuni tasdiqlaydiki, daromadlar strukturasi optimal nisbatini shakllantirish bankning uzoq muddatli strategik barqarorligini ta'minlaydi [7].

Tadqiqot natijalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan xulosalar bilan hamohangdir. Ya'ni, foizli daromadlar yuqori rentabellik manbai bo'lsa-da, komission daromadlar bank foydasining barqaror komponenti sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, korporativ xizmatlarni kompleks rivojlantirish – kreditlashni kengaytirish bilan bir qatorda komission xizmatlar portfelini ham boyitish – bank foydasini oshirishning eng maqbul strategiyasi hisoblanadi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, banklar korporativ segmentda faoliyat yuritishda daromadlar tarkibini muvozanatli shakllantirishi, risklarni nazorat qilishi va xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytirishi zarur. Bu esa nafaqat qisqa muddatli foyda o'sishini, balki uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ham ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda korporativ xizmatlarning bank foydasiga ta'siri foizli va komission daromadlar kesimida kompleks iqtisodiy tahlil qilindi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, tijorat banklarida foydaning shakllanishi ko'p omilli jarayon bo'lib, u daromadlar tarkibining optimal nisbatiga, kredit portfeli sifati va risk-boshqaruv samaradorligiga bevosita bog'liq. Tadqiqot natijalariga ko'ra, foizli daromadlar bank foydasining asosiy manbai sifatida yuqori rentabellikni ta'minlaydi. Kredit portfeli hajmining o'sishi va foiz marjasining barqarorligi aktivlar rentabelligi (ROA) hamda kapital rentabelligi (ROE) ko'rsatkichlarining oshishiga xizmat qiladi. Biroq foizli daromatlarga haddan tashqari tayanish bankni iqtisodiy sikllar va kredit risklariga sezgir holatga keltiradi. Komission daromadlar esa bank foydasining barqarorligini ta'minlovchi muhim komponent sifatida namoyon bo'ldi. Hisob-kitob operatsiyalari, kafolat va akkreditiv xizmatlari, valyuta operatsiyalari hamda raqamli bank xizmatlari orqali shakllanadigan daromadlar risk darajasi nisbatan past bo'lgani sababli bank daromadlarining tebranishini kamaytiradi. Daromadlar diversifikatsiyasi indeksi pasayishi bank faoliyatida konsentratsiya darajasining kamayganini va barqarorlik oshganini ko'rsatadi. Shuningdek, muammoli kreditlar ulushining kamayishi bank foydasining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Bu esa korporativ kreditlashda samarali risk-boshqaruv



tizimi joriy etilishining muhimligini tasdiqlaydi. Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, korporativ xizmatlar portfelini kompleks rivojlantirish, ya'ni kreditlash bilan bir qatorda komission xizmatlarni kengaytirish bank foydasini oshirishning eng maqbul strategiyasidir. Daromadlar tarkibining muvozanatli shakllanishi bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Diamond, Douglas W., & Rajan, Raghuram G. (2000). A Theory of Bank Capital. Journal of Finance.
2. Saunders, Anthony, & Cornett, Marcia Millon (2018). Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. McGraw-Hill Education.
3. Stiroh, Kevin J. (2004). Diversification in Banking: Is Noninterest Income the Answer? Journal of Money, Credit and Banking.
4. Mishkin, F. S. (2019). The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson Education.
5. Rose, P. S., & Hudgins, S. C. (2020). Bank Management & Financial Services. McGraw-Hill Education.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulletenlari (2018–2024 yy.).
7. Tijorat banklarining yillik moliyaviy hisobotlari (2018–2024 yy.).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100